



№6/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASI: MAZMUNI, TARKIBIY TUZILISHI VA ASOSIY KOMPONENTLARI

Amanov Akmal Aripjonovich

Namangan davlat chet tillar instituti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi tushunchasining mohiyati, uning zamonaviy chet tillarni o'qitish metodikasidagi o'rni, hamda pedagogik-lingvistik adabiyotlarda mavjud yondashuvlar tahlil qilingan. Kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi bir necha komponentlar - lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, kognitiv, affektiv va strategik komponentlar asosida ko'rib chiqilgan. Maqolada bo'lajak tarjimonlarda mazkur kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari yoritilib, uning kasbiy faoliyat uchun ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar:

madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, lingvistik komponent, sotsiokulturologik komponent, pragmatik komponent, bo'lajak tarjimon, madaniyatlararo o'zaro tushunish.

Аннотация.

В данной статье проанализирована сущность понятия межкультурной коммуникативной компетенции, её роль в современной методике обучения иностранным языкам, а также существующие в педагогической и лингвистической литературе подходы к её изучению. Структурный состав компетенции рассмотрен на основе следующих компонентов - лингвистического, социолингвистического, прагматического, когнитивного, аффективного и стратегического. В статье освещены теоретические основы формирования данной компетенции у будущих переводчиков, обосновано её значение для профессиональной деятельности.

Ключевые слова:

межкультурная коммуникативная компетенция, коммуникативная компетенция, лингвистический компонент, социокультурологический компонент, прагматический компонент, будущий переводчик, межкультурное взаимопонимание.

Abstract.

The article analyses the essence of intercultural communicative competence and its role in modern foreign language teaching methodology, along with existing approaches found in pedagogical and linguistic literature. The structural composition of the competence is examined through its components - linguistic, sociolinguistic, pragmatic, cognitive, affective and strategic. The theoretical foundations of forming this competence in future translators are highlighted, along with its significance for professional activity.

Keywords:

intercultural communicative competence, communicative competence, linguistic component, socio-cultural component, pragmatic component, future translator, intercultural mutual understanding.

Kirish. Globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashib borishi, xalqaro hamkorlik va madaniy almashinuvning kengayishi natijasida turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot zaruriyati ortib bormoqda. Bunday sharoitda chet tilini o'zlashtirish nafayqat grammatik va leksik bilimlarni egallash, balki muloqot jarayonida ishtirok etuvchi tomonlarning madaniy qadriyatlari, dunyoqarashi, xulq-atvor me'yorlarini tushunish va hurmat qilish ko'nikmalarini ham talab qiladi. Ayniqsa, bo'lajak tarjimonlar tayyorlash tizimida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi, chunki tarjimon nafaqat tilni, balki ikki (yoki undan ortiq) madaniyat o'rtasidagi vositachi sifatida faoliyat yuritadi.

Zamonaviy xorijiy va mahalliy pedagogika fanida ushbu muammo M. Bayram [1], D. Diardorff [2], M. Bennet [3], V. Safonova [4], G. Yeliizarova [5] kabi olimlarning ilmiy ishlarida turlicha yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Shu bilan birga, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining mazmuni va tarkibiy tuzilishi masalasi hozirgacha yagona nazariy tizimga

ega emasligi, turli tadqiqotchilar tomonidan har xil komponentlar taklif etilishi ushbu mavzuning yanada chuqur o'rganilishini taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish kabi ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi tushunchasining evolyutsiyasi xronologik tartibda ko'rib chiqilib, mavjud model va yondashuvlar qiyosiy tahlil etildi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining mazmuni

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi - shaxsning o'zga madaniyat vakillari bilan samarali, o'zaro hurmat va tushunishga asoslangan muloqot olib borish, madaniy farqlarni to'g'ri idrok etish, stereotip va noto'g'ri qarashlardan xoli bo'lgan holda muloqot jarayonini boshqarish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Ushbu kompetensiya shaxsning nafaqat tilshunoslik bilimlariga, balki uning kognitiv, affektiv (hissiy) va xulq-atvor sohalaridagi tayyorgarligiga ham bog'liq bo'lgan murakkab, ko'p qirrali hodisadir.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi dastlab faqat tilni to'g'ri va o'rinli qo'llash qobiliyati sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyinchalik bu tushuncha madaniyatlararo o'lchov bilan boyitildi. Natijada "madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya" atamasi paydo bo'ldi, u shaxsning o'z ona tili va madaniyati doirasidan tashqariga chiqib, boshqa lingvomadaniy jamoat vakillari bilan muvaffaqiyatli muloqot qurish qobiliyatini anglatadi. Bunda muloqotning muvaffaqiyati nafaqat til jihatidan to'g'riga yitirishda, balki madaniy jihatdan mos, vaziyatga adekvat xulq-atvorni namoyon etishda ham ko'rinadi.

Bo'lajak tarjimonlar uchun bu kompetensiya alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular kasbiy faoliyatida doimiy ravishda ikki madaniyat o'rtasida "ko'priki" vazifasini bajaradilar. Tarjimon nafaqat matnni bir tildan ikkinchisiga o'girishi, balki manba matnda yashiringan madaniy ma'no, kontekst, implikatura va pragmatik nozikliklarni ham to'g'ri yetkazib berishi lozim. Shu sababli madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish tarjimonlar tayyorlash tizimining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Tarkibiy tuzilishi va asosiy komponentlari

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi bir qator o'zaro bog'liq komponentlardan tarkib topadi. Ularni quyidagi tartibda tizimlashtirish maqsadga muvofiq:

1. Lingvistik komponent - chet tilining fonetik, leksik, grammatik va stilistik me'yorlarini bilish hamda ulardan nutq faoliyatida to'g'ri foydalanish qobiliyati;

2. Sotsiolingvistik komponent - muloqot vaziyatiga, suhbatdosh maqomiga, ijtimoiy kontekstga mos nutqiy uslubni tanlash va qo'llash qobiliyati;

3. Sotsiokulturologik (madaniyatshunoslik) komponent - o'rganilayotgan til mamlakati xalqining tarixi, urf-odatlar, qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlari, nutqiy odob-axloq qoidalari haqidagi bilimlar;

4. Pragmatik komponent - nutqiy vositalarni muayyan kommunikativ maqsadga erishish uchun kontekstga mos, samarali tarzda qo'llash, so'zlovchining niyatini va matn ortidagi ma'noni to'g'ri anglash qobiliyati;

5. Kognitiv komponent - o'z madaniyati va o'zga madaniyat o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qilish, madaniy hodisalarni tanqidiy idrok etish hamda umumlashtirish qobiliyati;

6. Affektiv (hissiy-qadriyatli) komponent - o'zgacha madaniyat va dunyoqarashga nisbatan ochiqlik, ijobiy munosabat, chidamlilik (toleratsiya) hamda etnosentrik qarashlardan voz kechishga tayyorlik;

7. Strategik komponent - muloqot jarayonida yuzaga keladigan tushunmovchilik yoki madaniy to'qnashuv holatlarini bartaraf etish uchun kompensator strategiyalardan foydalanish qobiliyati.

Yuqorida sanab o'tilgan komponentlar bir-biridan alohida emas, balki o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Masalan, yuksak darajadagi lingvistik bilim, agar sotsiokulturologik bilim va affektiv tayyorgarlik bilan uyg'unlashmasa, muloqotda madaniy nomuvofiqlik yoki hatto ziddiyatga olib kelishi mumkin. Shu bois, ta'lim jarayonida bu komponentlarni bir-biridan ajratmagan holda, kompleks va uzviy tarzda rivojlantirish zarur.

Bo'lajak tarjimonlar tayyorlash amaliyotida mazkur komponentlarni shakllantirish uchun nafaqat an'anaviy til darslari, balki mintaqashunoslik, madaniyatlararo muloqot nazariyasi, kasbiy tarjima amaliyoti kabi fanlararo integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish, shuningdek autentik matnlar, video materiallar, rolli va simulyatsion mashqlar, madaniyatlararo loyihalar kabi zamonaviy metodlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak tarjimonlarda kompetensiyani shakllantirish masalasi

Yuqorida ko'rsatilgan nazariy asoslarni amaliyotga tatbiq etish nuqtai nazaridan, oliy ta'lim tizimida bo'lajak tarjimonlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish bir necha bosqichli, izchil pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Birinchi bosqichda talabalarda o'rganilayotgan til mamlakati madaniyati haqida bilimlar tizimi shakllantiriladi - bu tarixiy-madaniy ma'lumotlar, ijtimoiy institutlar, an'analar va qadriyatlar haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqichda o'z madaniyati bilan o'rganilayotgan madaniyat o'rtasidagi qiyosiy tahlil ko'nikmalari rivojlantiriladi, bunda talaba ikki madaniyat o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tanqidiy baholashni o'rganadi. Uchinchi, yakuniy bosqichda esa amaliy-kommunikativ ko'nikmalar - real yoki simulyatsiyalashtirilgan muloqot vaziyatlarida madaniy jihatdan mos xulq-atvorni namoyon etish qobiliyati mustahkamlanadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, an'anaviy grammatik-tarjima usuliga asoslangan mashg'ulotlar madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish uchun yetarli emas. Shu sababli zamonaviy metodikada keys-stadi (case-study) usuli, madaniyatlararo insidentlar (critical incidents) tahlili, rolli o'yinlar, debat va diskussiya mashg'ulotlari, shuningdek xorijiy hamkor OTMlar bilan onlayn almashinuv loyihalari (masalan, telekommunikatsion proyektlar, virtual almashinuv dasturlari) keng qo'llanilmoqda. Bunday metodlar talabaga nazariy bilimni amaliy vaziyatda sinab ko'rish, xato qilish va undan xulosa chiqarish imkoniyatini beradi, bu esa kompetensiyaning barqaror shakllanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Alohida ta'kidlash joizki, tarjimon faoliyatida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining yetishmasligi nafaqat tilshunoslik xatolariga, balki jiddiy pragmatik va madaniy tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin - masalan, betarafmi yoki haqoratlimi ekanligi kontekstga bog'liq bo'lgan iboralarning noto'g'ri tarjima qilinishi, madaniy jihatdan sezgir mavzularni (masalan, din, siyosat, oilaviy munosabatlar) noto'g'ri talqin etish yoki nomaqbul uslubda yetkazish kabi holatlar. Shu bois ushbu kompetensiyani baholash mezonlarini ishlab chiqish va uni tarjimonlik ta'limining barcha bosqichlariga integratsiya qilish nafaqat nazariy, balki amaliy zaruriyatdir.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi zamonaviy chet tilini o'qitish metodikasining markaziy tushunchalaridan biri bo'lib, u shaxsning turli madaniyat

vakillari bilan samarali va hurmatga asoslangan muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Uning tarkibiy tuzilishi lingvistik, sotsiolingvistik, sotsiokulturologik, pragmatik, kognitiv, affektiv va strategik komponentlarning uzviy birligidan iborat bo'lib, ushbu komponentlarni majmualar tarzida rivojlantirish bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetentligini oshirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu komponentlarni bo'lajak tarjimonlarda shakllantirishning aniq metodik mexanizmlari va ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence / M. Byram. - Clevedon : Multilingual Matters, 1997. - 124 p.
2. Deardorff, D. K. The Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization / D. K. Deardorff // Journal of Studies in International Education. - 2006. - Vol. 10, № 3. - P. 241–266.
3. Bennett, M. J. Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity / M. J. Bennett // Education for the Intercultural Experience. - Yarmouth, ME : Intercultural Press, 1993. - P. 21–71.
4. Сафонова, В. В. Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизаций / В. В. Сафонова. - Воронеж : Истоки, 1996. - 237 с.
5. Елизарова, Г. В. Культура и обучение иностранным языкам / Г. В. Елизарова. - СПб. : КАРО, 2005. - 352 с.
6. Жалолов, Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси : дарслик / Ж. Ж. Жалолов. - Тошкент : Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2012. - 432 б.

Нишанов Хусан Мойдинжанович

ИЗУЧЕНИЕ МИЦЕЛЛООБРАЗУЮЩИХ СИСТЕМ МЕТОДОМ АКУСТИЧЕСКОЙ СПЕКТРОСКОПИИ..... 156 158

Norbo'tayeva Sarvinoz Ismatillayevna

MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLIYAT ASOSIDA ALOHIDA EHTIYOJLI TALABALAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATION PEDAGOGIK MEKANIZMLARI 159 168

Atajonov Muxiddin Odiljonovich

TiO₂ FOTOELEKTR QATLAMI VA Bi₂Te₃/Sb₂Te₃ TERMoeLEKTR MODULLARINI INTEGRATSIYALASH ASOSIDA GIBRID QUYOSH ENERGIYASI O'ZGARTIRGICHINING TOK, KUCHLANISH VA QUUVAT XARAKTERISTIKALARINI TADQIQ ETISH..... 169 180

Hasanov Sharobidin

FILOLOG-TALABALARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI 181 186

Raxmatullayeva Gulnoza Mavlanjonovna

TALABA-YOSHLARDA IJTIMOYIY-MA'NAVIY ODOBNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI 187 190

Amanov Akmal Aripjonovich

MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASI: MAZMUNI, TARKIBIY TUZILISHI VA ASOSIY KOMPONENTLARI 191 194

Xolmirzayeva Dilaferuz Fattayevna

TALABALARNING EPISTEMOLOGIK FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR 195 204

